



## **DAVLAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLAR ROLINI OSHIRISH**

***Iminova Dilbarxon Mannobovna***  
*Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada gender - xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatni ko‘rsatilgan. Har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlanishidadir.

**Kalit so‘zlar:** gender, erkak va ayol huquqlari, huquqiy himoya, huquqiy kafolat, tenglik, fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, qonuniy huquq va erkinliklar, milliy qonunchilik.

### **ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ ЖЕНЩИН В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ**

**Аннотация:** в данной статье представлен гендер - социальный аспект отношений между женщинами и мужчинами, проявляющийся во всех сферах жизни и деятельности общества, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, образование и науку. Он выдвигает идею о том, что представителям обоих полов следует предоставить равные возможности для уверенного продвижения к своим мечтам и целям и повышения качества жизни. Одним из требований развитого общества является обеспечение равенства прав мужчин и женщин.

**Ключевые слова:** гендер, права мужчин и женщин, правовая защита, правовые гарантии, равенство, Международный пакт о гражданских и политических правах, законные права и свободы, национальное законодательство.

### **ENHANCING THE ROLE OF WOMEN IN PUBLIC ADMINISTRATION**

**Abstract:** This article explores the social aspect of gender - the relationship between women and men, as manifested in all spheres of society's life and activities, including politics, economics, law, ideology and culture, education and science. It advocates for providing equal opportunities for representatives of both sexes to confidently stride towards their dreams and goals, and to improve their quality of life. One of the requirements of a developed society is ensuring equality of rights between men and women.

**Keywords:** gender, men's and women's rights, legal protection, legal guarantees, equality, International Covenant on Civil and Political Rights, legal rights and freedoms, national legislation.

**Kirish:** Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyati vasalohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

**Adabiyotlar tahlili va metod:** Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining –O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasito‘g‘risida 2017 yil 07 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish etib belgilanganligi<sup>121</sup> hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevral kuni –Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5325-sonli Farmonida mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish muhim ustuvor yo‘nalish etib belgilanganligi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeい yuksalishining yangi bosqichini belgilab berdi<sup>122</sup>.

**Materiallar va usullar:** Bugungi kunda ayollarimiz ishlab chiqarish, tadbirkorlik, hunarmandchilik, ilm-fan, san’at, sport kabi sohalarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida va muassasalarga rahbarlik qilmoqda.

Mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat hokimiyati organlarida 321 nafar, tarmoqlar bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida 30414 nafar ayol mehnat qilmoqda. Ulardan 15 nafari senator, 21 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqori Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar halq deputalari Kengashlari deputatlari va Xalq deputatlari tuman-shahar Kengashlarida 1516 nafar ayol deputatlarimiz faoliyat olib bormoqda.

Davlat qonunlarini qabul qilinishida ishtirok etish, unda xotin-qizlarlar masalasini qo‘ya bilish, ularni manfaatini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlardan aniqlanmoqdaki, xotin-qizlar masalasi o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi, buning uchun izchil davlat siyosati, uning aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, eng muhimi, xotin-qizlarning faolligi zarur.

<sup>121</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

<sup>122</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.02.2018 yildagi PF-5325-son

Jamiyat hayotida ayollarning rolini oshirish, avvalo, ularning bandligini ta’minlash borasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha mamlakatimizda tub islohotlar rejasi tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida Xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim. Bu borada joriy yilda ko‘rilgan amaliy choralarga qaramay, haligacha og‘ir turmush sharoitida yashab,ish bilan ta’minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir, degan fikrlarni bildirib, ushbu sohada yechimi topilishi zarur bo‘lgan masalalar talay ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Shu nuqtai nazardan ham bugungi kunda jamiyatdagi ayollarning ahvolini har tomonlama o‘rganib, tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2017/2018 o‘quv yilining sirtqi ta’limiga qabul qilingan 8984 nafar talabaning 77,8 % ini qizlar tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarning diqqatga sazovor joyi shundan iboratki, ayollarimizning bilim olish va muayyan soha mutaxassisi bo‘lib yetishishga ishtiyoqi yanada oshgan. Bundan tashqari, ayol-qizlar o‘rtasida muayyan kasb-hunarni o‘rganish va shu orqali jamiyatda munosib o‘rinni egallashga intilish yuqori ekanligini bugun hayotning o‘zi isbotlamoqda.

Ta’kidlash joiz, ayolning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun uni, avvalo, ish bilan ta’minlash lozim. Biroq masalaning o‘ziga xos jihatni shundan iboratki, jamiyatimizda ba’zi hollarda ayollarning ishga joylashish jarayoni muayyan sabablarga ko‘ra murakkab kechadi. Xususan, ishga joylashishda ko‘pincha, ayollarga nisbatan erkaklarga ko‘proq imtiyoz beriladi. Sababi ayollarni ishga qabul qilishda aksariyat rahbarlar ularning oiladagi muammolari, tug‘ish va bolalar parvarishi ta’tiliga chiqish ehtimoli va shu kabi boshqa holatlarni vaj qilib ko‘rsatadilar.

Bir tomonidan rahbarlarning bunday yondashuvini butkul qoralab bo‘lmaydi. Chunki bu vaqtda ayollar ishlab chiqarish sohasidan yiroqlashadi va mutaxassis yoki xodim sifatida lozim darajada ishlay olmaydi, malakasi ham avvalgiga nisbatan pasayadi. Biroq masalaning ikkinchi tomoni shundan iboratki, jamiyatimizda ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamga ko‘mak berish borasidagi muayyan muammolarning yechimi aynan ayollarning ish bilan ta’minlanganligi bilan bog‘liq. Ta’kidlash joiz, kaltakning ikki tomonibo‘lgani kabi bunday masalalarga ham bir yoqlama qarash bilan emas, balki ob‘yektiv nuqtai nazar bilan yondashish zarur.

Masalan, davlat-xususiy sherikchiligi orqali kechki maktabgacha ta’lim muassasalari, maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan mакtab-internat va gimnaziyalar singari ta’lim tizimlarini isloh etish zarur. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga davlat tomonidan muayyan sharoitlar yaratilishihamda ushbu oilalarning farzandlariga zarur ta’limni berishni nazarda tutgan holda ular uchun pulli xizmatlar bo‘yicha maxsus chegirmalar joriyetilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yondashuv ayollarimizning vaqtlanisamarali tejashta yordam beradi. Bu esa ularga muayyan tashkilotda ishlab, mehnat faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi. Ya’ni jamiyatimiz ravnaqiga ayollarimizning salmoqli hissa qo‘sishlari zamin yaratiladi.

Shuningdek, mazkur taklifni amaliyatga tatbiq etish ayollarimizga bir vaqtida ham o‘z oilalariga g‘amxo‘rlik qilish va zamon bilan hamnafas bo‘lib yashash imkonini beradi.

Ijtimoiy fikr jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan O‘zbekiston ayollari – 2017: ijtimoiy mavqe va kayfiyat mavzusida so‘rov o‘tkazildi. Shahar va qishloq joylarda yashaydigan turli millat, ijtimoiy guruhga mansub, ishlab chiqarishning turfa soha va jabhalarida faoliyat yuritayotgan 18 va undan katta yoshdagi ayollar qatnashgan so‘rov natijalari ayollarning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sheyotgani, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida faoliyat yuritayotgani, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari ishida faol ishtirok etayotganini ko‘rsatdi<sup>123</sup>.

Jumladan, ayollar Siz umuman olganda xotin-qizlarning o‘z shaharingiz, tumaningiz, mahallangiz, ish joyingizdagi ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligi darajasini qanday baholaysiz? degan savolga respondentlarning 31,7%i yuqori, 57,3%i o‘rtacha deb baho bergenlar. Siz mahalliy hokimiyat organlaridagi, shuningdek vakillik va ijroiya hokimiyatning tuman va viloyat organlaridagi rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning ko‘proq bo‘lishi haqidagi tashabbusni qo‘llab-quvvatlaysizmi? degan savolga 70,9% respondent ijobiy javob bergen. Shuningdek, Siz aynan qanday jamoatchilik yoki siyosiy tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etyapsiz? degan savolga respondentlarning 66,5%i fuqarolarning o‘zini-o‘zini boshqarish organlariva xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘limlarida, 14,6%i yoshlarning jamoatchilik tashkilotlarida, 6,0%i hokimiyat organlarida (viloyat, shahar va tuman bosqichida), 5,3%i siyosiy partiyada, 3,5 notijorat nohukumat tashkilotlarida, 4,1%i savolga javob berishga qiynalganliklari aniqlangan.

**Xulosa:** jamiyatda ayollarning siyosiy hayotga jalb qilinishi siyosiy madaniyatni shakllantirish usullaridan bo‘lib, ularni hokimiyatga munosabati, siyosiy imkoniyati va salohiyatini amalga oshirish jamiyatda demokratiyaning indikatori hisoblanadi. Shu bois, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning ishtirokiga to‘sinqil qiluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini tenglik prinsipi asosida hal qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi vazifalar barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, salohiyat va imkoniyatini hisobga olish muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.02.2018 yildagi PF-5325-son
3. Жамиятда фаол, оиласда баҳтиёр. Ҳалқ сўзи газетаси, 27.01.2018 й. №18.
4. “Ўзбекистон хотин-қизлари-2017: ўзини ижтимоий ҳис қилиш ва ижтимоий кайфият” мавзусидаги жамоатчилик фикри сўрови натижалари бўйича “Ижтимоий фикр” марказининг ахборот-таҳлилий маъruzasi.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари.

<sup>123</sup> Жамиятда фаол, оиласда баҳтиёр. Ҳалқ сўзи газетаси, 27.01.2018 й. №18.